

# UNESCO granti: Moskvada barcha xarajatlar qoplanadigan 1 oyik o'qish

**Qayerda:** Rossiya, Moskva

**Kim uchun:** Bakalavrluk diplomiga ega bo'lganlar uchun

**Hujjat topshirish muhlati:** 2018-yilning 3-apreligacha

**Umumiy ma'lumot:** UNESCO va Barqaror energetikani rivojlantirish xalqaro markazi (International Center for Sustainable Energy Development) rivojlanayotgan davlatlarda barqaror va yangilanadigan (renewable) energiya sohasida inson resurslarini oshirish va rivojlantirish maqsadida Rossiyaning Moskva shahrida 4 haftalik o'quv dasturi yuzasidan grant dasturini e'lon qildi.

**Dastur davomiyligi:** Ushbu o'quv dasturi 2018-yilning 1-oktabridan 26-oktabrigacha davom etadi.

**Qabul qilinishi rejalashtirilgan ishtirokchilar soni:** O'zbekiston uchun 2ta.

**O'qish sohasi:** Nomzodlar quyidagi sohalardan birini tanlashi mumkin:

- Energetika va barqaror rivojlanish (Energy and sustainable development);
- Energiya resurslarining ekologik boshqaruvi (Ecological management of energy resources);
- Yangilanadigan energiya (Renewable energy);
- Yangilanadigan va barqaror energiya ishlab chiqarish manbalari (Sustainable and renewable energy power generation).

**Iqtisodiy ta'minot:** Ushbu dasturda qatnashish huquqini qo'lga kiritganlar quyidagi iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- O'qish puli to'liq to'lab beriladi;
- Moskvaga borish va kelish xarajatlari to'liq qoplanadi;
- Oziq ovqat, turar joy va boshqa xarajatlar uchun har bir ishtirokchiga oyiga 475 AQSh dollari miqdorida stipendiya beriladi;
- Rossiyaga borishdan oldin aeroport bilan bog'liq xarajatlar uchun 100 AQSh dollari miqdoridagi summa beriladi.
- Tibbiy sug'urta xarajatlari qoplab beriladi;
- Har bir ishtirokchiga alohida kishi birlashtiriladi;
- Yashash joy izlash va topishda bevosita yordam ko'rsatiladi.

**Nomzodga qo'yilgan talablar:**

- Nomzod kamida bakalavrluk diplomiga ega bo'lishi lozim, agar diplom BA in Economics sohasida bo'lsa yaxshi.
- Nomzod ingliz tilini yaxshi bilishi va bu tilda qiyinchiliksiz muloqot qila olishi lozim. O'qish ingliz tilida olib boriladi.
- Nomzod 35 yoshdan oshmagan bo'lishi kerak.

**Topshirilishi lozim bo'lgan hujjarlar:**

- Belgilangan shakldagi ariza;
- 6ta fotosurat;
- Diplomning notarial tasdiqlangan nusxasi;
- Ingliz tilini bilish darajasini isbotlovchi hujjat (IELTS/TOEFL);

- Tibbiy ma'lumotnoma. Ushbu ma'lumotnoma keyinchalik – nomzod tanlangandan keyin nomzodga yuboriladi va nomzod shu ma'lumotnoma asosida tibbiy tekshiruvdan o'tadi.

Barcha hujjatlar ingliz yoki fransuz tilida bo'lishi lozim.

**Hujjat topshirish jarayoni:** Nomzodlar hujjatlarini to'g'ridan-tog'ri UNESCO ga topshira olmaydi. Har bir nomzod ushbu dasturga aloqador hujjatlarni o'z davlatidagi UNESCO Milliy komissiyasiga topshiradi va Milliy komissiya tasdig'idan o'tgan hujjatlarga UNESCO'ga yuboriladi.

O'zbekistondagi UNESCO Milliy komissiyasi sayti **SHU**

**YERDA** ([http://www.unesco.org/new/en/tashkent/about-this-office/single-view/news/national\\_commission\\_of\\_uzbekistan\\_for\\_unesco](http://www.unesco.org/new/en/tashkent/about-this-office/single-view/news/national_commission_of_uzbekistan_for_unesco)).

Batafsil **SHU**

**YERDA** (<http://www.unesco.org/new/en/fellowships/programmes/unescoisedc-co-sponsored-fellowships-programme/>) tanishing.